

---

## "FARG'ONA HAQIQATI" GAZETASINING 27-SONIDA "NOMSIZ KO'CHALAR, RAQAMSIZ UYLAR" SARLAVHASI OSTIDA MAQOLASIGA FARG'ONA SHAHAR HOKIMLIGNING RASMIY MUNOSABATI



Joriy yilning 30 mart kuni "Farg'ona haqiqati" gazetasining 27-sonida "Nomsiz ko'chalar, raqamsiz uylar" sarlavhasi ostida maqola e'lon qilingan edi. Shundan so'ng Farg'ona shahar hokimligining ishchi guruhi tomonidan "Shakarqishloq" MFY raisi A.Eshimov bilan olib borilgan o'rganish mobaynida MFY hududida qurib bitkazilib, foydalanishga topshirilgan yetti qavatli uylarning barchasiga peshlavhalar (ko'cha nomlari) va uy raqamlari o'rnatilganligi, biroq to'rt qavatli uylarga peshlavhalar (ko'cha nomlari) va bino raqamlari o'rnatilmaganligi aniqlandi. Shuningdek, maqolada qayd etib o'tilgan Mirzo Ulug'bek MFY hududidagi holatlar bo'yicha MFY raisi M.Miryusupov ishtirokida o'rganish olib borildi. O'rganish yakunida barcha aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mutasaddi tashkilotlarning mas'ullariga hamda XUJMSh raislariga kerakli ko'rsatmalar berildi.

### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-04-09 19:13:57